

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2022

2-son

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

TAHRIRIYAT		
	4	Ilm izlash, ijod qilish – inson kashf etgan amallar, faoliyatlar ichida eng serzahmati
TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI		
N.Abdullayeva	5	Pedagogik mas'uliyatni shakllantirish – kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning integral komponenti sifatida
A.Rasulov	10	Umumiy o'rta ta'limga muktabalarida zamonaviy ta'limga klassteri sharoitida iqtisodiyot bilim asoslari fani o'qitishning zarurligi
D.Axmadjonov	13	Akseologik yondashuv asosida bag'rikenglik kompetensiyasini rivojlantirish
T.Sultanov	17	Ilk boshlang'ich ta'limga pedagogikasining muhim jihatlari va ularning izohlari
S.Toshboyev	21	Ta'limga innovatsiyalar va ularning tahlili
TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI		
J.Ravshanov	25	O'quvchilarda tahliliy kompetensiyalarni shakllantirishda an'anaviy ta'limga metodlaridan foydalanish
K.Abdullayev	27	Adabiyot darslarida tarix, tasviriy san'at, musiqa fani materiallaridan foydalanishning pedagogik-psixologik asoslari
H.Bakiyeva	31	Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini shakllantirish
M.Mamadjanova	34	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini mantiqiy masalalarni yechishga metodik tayyorgarligini ta'minlash
G.Nabiiev	38	Maktab o'quvchilarida tadbirkorlik qobiliyatlarini shakllantirish
Z.Umarova	40	Umumiy o'rta ta'limga muktabalarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish metodikasi
D.Ismoilova	44	K.D.Ushinskiyning pedagogik merosini o'qitish interfaol metodlar
TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT		
Sh.Qo'qonboyeva	47	Bo'lajak fizika o'qituvchilarining boshlang'ich kasbiy kompetentligining shakllanganlik darajasini aniqlash
ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI		
R.Musurmonov A.Suyarov	52	Ta'limga jarayonida zamonaviy yondashuv imkoniyatlari
F.Maxmudova	56	Ta'limga integrativ yondashuvni tashkil etish pedagogik muammo sifatida
D.Ximmataliyev B.Xayridinov	59	Masofaviy ta'limga zamonaviy axborot va kommunikatsiya vositalarining ahamiyati
S.Qorayev N.Tirkashev	62	Kompetensiyaviy ta'limga – o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarda sifat uyg'unligining asosi
A.Abdullayev	65	Professional ta'limga tizimida arxitekturaviy loyihalashni o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanish
I.Qodirov	68	Shaxsga yo'naltirilgan ta'limga texnologiyalari asosida tarix darslarinin samarali tashkil etish

S.Akbarova	71	Kredit-modul tizimida ta'limning samaradorligini oshirishda raqamli texlogiyalarni qo'llash
Y.Sultanov	76	3D texnologiyasi asosida "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish" fanini o'qitishning metodikasini takomillashtirish
MILLIY TA'LIM TEKNOLOGIYALARI		
B.Narzullayeva	80	Millatlararo do'stlik aloqalarini rivojlantirishda mahallaning o'rni
S.Muxammadiyeva	83	Talabalarni tarbiyalashda Ahmad Yassaviyning e'tiqod tarbiyasi haqidagi fikrlaridan foydalanish
TA'LIMDA MENEJMENT		
F.Jumanova	87	Yangi O'zbekistonda bo'lajak o'qituvchilarning boshqaruvi kompetentligini rivojlantirish mazmuni
HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA		
M.Jo'raxo'jayev	90	Imkoniyati cheklangan bolalar uuda yakka tartibdagi ta'lmini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari
MAKTABGACHA TA'LIM		
G.Nazirova	95	Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida ijtimoiy kompetensiyani shakkantirish yo'llari
V.Ganiyeva		
D.Ganiyeva	99	Maktabgacha yoshdagagi bolalarni aqliy rivojlantirishda intellektual o'yinlarning ahamiyati
S.Achilova	103	Maktabgacha yoshdagagi bolalarning jismoniy fazilatlarini rivojlantirish xususiyatlari
D.Xalkuziyeva	107	Maktabgacha yoshdagagi bolalarni maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlashning pedagogik va psixologik jihatlari
G.Mo'minova	110	Maktabgacha yoshdagagi bolalar axloqiy va irodaviy fazilatlarini tarbiyalashda o'yinning ahamiyati
Sh.Ibragimova	114	Maktabgacha yoshdagagi bolalarda kognitiv, intellektual va shaxsiy rivojlanish sohalari
F.Abdug'opirova	119	Kognitiv faoliyatni rivojlantirish orqali maktabgacha yoshdagagi bolalarni maktabga tayyorlash – pedagogik muammo sifatida
PSIXOLOGIYA		
N.Abdullayeva	124	O'smir o'quvchilarda mustaqillik fenomeni va uning konformlilik orqali tushuntirilishi
QIYOSIY PEDAGOGIKA		
K.Abrorxonova		
D.Yunusova	127	O'zbekiston ta'lif tizimini modernizatsiya qilish jarayonida Finlandiya tajribasidan foydalanish istiqbollari
СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ		
Г. Тожибоева	131	Диагностика профессиональной компетентности будущих учителей начальных классов вопросах развития речи школьников
МЕНЕЖМЕНТ В ОБРАЗОВАНИИ		
A. Magrupov	138	Управленческая деятельность – как необходимая составная часть руководителя

Rahmatilla MUSURMONOV,

Chirchiq davlat pedagogika instituti "Pedagogika va menejment" kafedrasi dotsenti, p.f.n.

Ashurbek SUYAROV,

Chirchiq davlat pedagogika instituti "Pedagogika va menejment" kafedrasi o'qituvchisi

TA'LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY YONDASHUV IMKONIYATLARI

Annotation

Maqolada uzlusiz ta'lismi tizimida dars jarayonida zamonaviy yondashuvlar, ta'limga modernizatsiyalashning dolzarb muammolari tahlil etilib, tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar. Zamonaviy ta'lim, ta'lim tizimini modernizatsiyalash, o'quv jarayoni, ta'lim samaradorligi, innovatsion ta'lim, ta'lim olish huquqi, o'quv-uslubiy faoliyat, huquqiy-me'yoriy baza, innovatsion ta'lim texnologiyalari, innovatsion ta'lim klasteri.

В статье анализируются современные подходы к учебному протесессу в системе непрерывного образования, актуальные проблемы модернизации образования и даются рекомендации.

Ключевые слова. Современное образование, модернизация системы образования, образовательный протесесс, эффективность образования, инновационное образование, право на образование, учебно-методическая деятельность, нормативно-правовая база, инновационные образовательные технологии, инновационный образовательный кластер.

The article analyzes modern approaches to the educational process in the system of continuous education, current problems of education modernization and gives recommendations.

Key words. Modern education, modernization of the education system, educational process, educational efficiency, innovative education, the right to education, educational and methodological activities, legal framework, innovative educational technologies, innovative educational cluster.

Etirof etish kerakki, zamonaviy ta'lim yondashuvlari, ularning maqsad va vazifalari ta'lim tizimini modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishidir. Ta'lim sifatini ta'minlash – bitiruvchilarining kasbiy tayyorlarlik darajasi bilan birga o'quv jarayonining qanday tashkil etilishi va uning belgilangan sifat mezonlariga javob berishida ko'rindi. Ushbu vazifa "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, bir qator qonunchilik va me'yoriy hujjalarda kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlardan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish misolida aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ko'rsatma va tamoyillar ko'rinishida o'z aksini topgan. Jumladan, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 6-moddasida: " Ta'lim tizimi yagona va uzuksizdir" deyilgan.

Ta'limga modernizatsiyalashdan maqsad ta'limga taraqqiyotini ta'minlash va tizimda XXI asrda yashayotgan jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlari, har bir shaxsning va oilaning ehtiyojlari aks etishi lozim. Bunday taraqqiyot tizimini yaratish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

-
- davlat tomonidan to'liq ta'lif olish huquqini ta'minlanishi;
 - ta'lif tizimining barcha bosqichlarida zamonaviy ta'lif sifatini ta'minlash;
 - ta'lifning huquqiy-me'yoriy bazasini takomillashtirish va tashkiliy-iqtisodiy me-xanizmlarni yangi resurslarini aniqlash va jalb etish;
 - pedagog kadrlarning kasbiy-innovatsion kompetentligini rivojlantirish va rag'batlantirish;
 - ta'lif tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining so'nggi yutuqlarini keng joriy etish;
 - fan, ta'lif va ishlab chiqarish o'rtafigi konsorsiumni rivojlantirish;
 - uzlusiz ta'lif tizimida yoshlarning kreativ ko'nikmalarini, intellektual sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion ta'lif texnologiyalarini tatbiq etish zarur.

"2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"da ham ta'lif sohasini tubdan takomillashtirishga e'tibor qaratilgan. Ta'lif tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan mazkur hujjatlar ning barchasida sohaga innovatsiyalarni kiritish, xorijiy tajribalarni o'zlashtirish, ijodiy yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lif turlari o'rtafigi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish bilan bog'liq umumiy jihatlar mavjud.

Ta'lif texnologiyasining markaziy muammosi – ta'lif oluvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lif maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat. O'z mohiyatiga ko'ra pedagogik texnologiya vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismalarining vazifalari aniq belgilangan tizimni ifodalaydi.

Ta'lif tizimini texnologiyalashtirish g'oyasi o'tgan asrning boshlarida G'arbiy Yevropa va AQShda ta'lif tizimini isloq qilish, ta'lif samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlash uchun muayyan shart-sharoitni yaratish borasidagi ijtimoiy harakat yuzaga kelgan davrda ilk bora o'rtaga tashlandi. Mazkur g'oya 30-yillarda ta'lif jarayoniga "pedagogik texnika" ("ta'lif texnikasi") tushunchasining olib kirilishi bilan asoslandi. Ushbu davrlarda yaratilgan maxsus adabiyotlarda "pedagogik (ta'lif) texnika(si)" tushunchasi "o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi usul va vositalar yig'indisi" tarzida talqin etildi hamda o'quv jarayoniga o'quv va laboratoriya jihozlarining olib kirilishi, ulardan samarali, unumli foydalanish, material mazmunini ko'rsatmali qurollar yordamida tushuntirish kabi holatlar ta'lif samaradorligini oshirishga yordam beruvchi yetakchi omillardir deya baholandi.

XX asrning 50-yillarida ta'lif jarayonida texnik vositalarni qo'llash "ta'lif texnologiyasi" yo'nalishini belgilab beruvchi omil deya e'tirof etildi. Asosiy e'tibor tinglovchilar auditoriyasini kengaytirish texnik vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirilishi, texnik vositalarning imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, ularning axborot sig'imini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatlari tashkil etish, ta'lif olishni individual-lashtirish kabi masalalarga qaratildi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarning ob'ekti, tayanch nuqtasi sifatida texnik vositalar imkoniyatlari, ularni takomillashtirish jarayoni qabul qilindi, shuningdek, o'quv jarayonini "texnologiyalashtirish"ning tashkiliy jihatlarini o'rganishga alohida urg'u berildi. 60-yillarning boshlarida ta'lifni dasturlash asosida ta'lif jarayonini tashkil etish "texnologiya" tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi omil sifatida ko'rila boshlandi.

Dasturiy ta'lif o'zida ta'lif maqsadlari, ularni o'zgartirish va baholashning mos ravishdagi mezonnari hamda ta'lif muhitining aniq tavsifini qamrab oladi. Bu esa o'zgartirish majmuasini to'laligicha qayta tashkil etish tushunchasi mazmuniga mos

keladi. “Texnologiya” so’zi texnikaviy taraqqiyot bilan bog’liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so’zdan – “texnos”-san’at, hunar va “logos” – fan so’zlaridan tashkil topib “hunar fani” ma’nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to’liq tavsiflab bera olmaydi. Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko’zda tutadi. Texnologik jarayon – bu mehnat qurollari bilan mehnat obyektlariga bosqichma-bosqich ta’sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchining faoliyatidir.

Pedagogik texnologiya (PT) –bu o’qituvchining o’qitish vositalari yordamida o’quvchilarga muayyan sharoitda ta’sir ko’rsatish va aks ta’sir mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarining jadal shakllanishini kafolatlaydigan jarayondir.

“Texnologiya” atamasining xilma-xil ko’rinishlarini uchratish mumkin: “o’qitish texnologiyasi”, “o’quv jarayoni texnologiyasi”, “ma’lumot texnologiyasi”.

O’qitish texnologiyasi PTga yaqin tushuncha bo’lsada, aynan o’xhash ma’noni anglatmaydi, chunki u ma’lum predmet, mavzu va savollar doirasidagi aniq o’quv materialini o’zlashtirish yo’llini muayyan texnologiya atrofida ifoda etadi. U ko’proq xususiy metodika bilan bir jinslidir.

PT esa ma’lumot texnologiyasini joriy etish taktikasini ifodalaydi va “o’qituvchi – moddiy muhit –o’quvchi” funksional tizim qonuniyatlariga tegishli bilimlar asosida ko’riladi.

Hozirgi kunda o’qituvchilar metodikani ko’p hollarda texnologiyadan ajrata olma-yaptilar. Shu boisdan bu tushunchalarini aniqlashtirish kerak bo’ladi.

Metodika o’quv jarayonini tashkil etish va o’tkazish bo'yicha tavsiyalar majmua-sidan iborat.

Metodikadan ko’zlangan asosiy maqsad predmet mavzulariga oid nazariyalarni aniq hodisalar tekisligiga ko’chirishdir. Misol uchun, gaz qonunlari tushunchalarini shakllantirish metodikasi yoki energiyaning saqlanish qonunini fizika kursining elektr bo’limida qo’llash metodikasi va boshqalar.

PT o’qitish jarayonining o’zaro bog’liq qismlarini tashkiliy jihatdan tartibga solish, bosqichlarini ko’rish, ularni joriy etish shartlarini aniqlash, mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda belgilangan maqsadga erishishni ta’minlaydi.

Pedagogik texnologiya o’qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta’limda yakuniy natijani kafolatlaydigan muolajalar yig’indisidir.

Texnologiya o’zining egiluvchanligi, natijalarning turg'unligi, samaradorligi, oldindan loyihalanish zarurati bilan metodikadan farqlanib turadi.

Shu bilan birgalikda ma’lum vaqt davomida PT o’quv jarayonini texnik vositalar yordamida amalga oshirish, deb qarab kelindi. Faqat 70-yillardan boshlab pedagogik adabiyotlarda bu tushunchaning mohiyati yangicha talqin etila boshlandi. Yapon olimi T.Sakamoto tomonidan “o’qitish texnologiyasi – bu o’qitishning maqbulligini ta’minlovchi yo’l-yo’riqlar tizimi bilan bog’lik bilimlar sohasi” ekanligi e’tirof etiladi.

Y.Lernerning fikricha, PT – “o’quvchilar harakatida aks etgan o’qitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan va aniqlanadigan maqsadni ifodalashni taqozo etadi”.

Yuqorida keltirilgan ta’riflardan ko’rinib turibdiki, PT belgilangan boshlang’ich maqsad va mazmun asosida o’quv jarayonini loyihalash sifatida talqin etilyapti. Bu bir jihatdan to’g’ri, lekin teranroq fikr yuritsa, uning bir yoqlamaligi ko’zga yaqqol tashlanadi yoki bunday yondashuvlarda o’quvchi shaxsi inkor etiladi.

Bu kamchilikni birinchi bo’lib akademik V.P. Bespalko payqadi va o’zining yirik asarida (Беспалко В.П. Слагаемые педагогической технологии – Москва “Педа

гогика"1989 г.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 30-avgust-dagi "O'qituvchi va murabbiylar" kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagи nutqida qayd etganidek: "Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lif va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lif tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq. Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni yechish imkonи tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi" deb e'tirof etgan edi.

"Pedagogik texnologiya – bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lмаган holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidi" deb ta'rifladi. Bu ta'rif mazmundan muhim ilmiy tamoyillarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

-PT o'quvchilarda ma'lum ijtimoiy tajriba elementlarini shakllantirish uchun loyihsanadi; loyihalangan tayyor texnologiyani amalga oshirish fan o'qituvchisidan katta mahorat talab etmaydi; yakuniy natija, albatta, kafolatlanadi. PT tushunchasini oydinlashtirishga qaratilgan ta'riflarning xilma-xilligi, bir tomonidan, rivojlangan mamlakatlarda bu mavzuning u yoki bu darajada yechilganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomonidan, PTni amaliyotga joriy etishga bo'lgan urinishlar natijasini ifodalaydi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi qonuni. –T., 2020-yil, 23-sentabr.
2. "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi". Lex.uz.
3. Лернер И.Я. Дидактические основы методов обучения. – Москва, Педагогика, 1981. – 186 с.
4. Беспалко В.П. Слагаемые педагогической технологии – Москва "Педагогика"1989 г.
5. Musurmonov R. va Suyarov A. M. "Fan va zamonaviy ta'lifning asosiy masalalari". "Maktab va hayot" ilmiy metodik jurnal, Maxsus son, 17-bet. 2021-yil №2.